

BUXORO AMIRLIGINING DAVLAT TUZUMI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTI.

X.Q.SULTONOV

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent shahri

O'zbekiston Respublikasi.

Elektron pochta: sultonovhusanboy08@mail.com

Tel. raqam: + 998901137071

ANNOTATSIYA

Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotini tahlil qiladi. Tadqiqotda vohaning siyosiy tashkiloti, hokimiyat tuzilmasi, moliyaviy va soliq tizimi hamda amirlik davridagi ijtimoiy qatlamlar batafsil yoritiladi. Shuningdek, maqolada Buxoro amirligining iqtisodiy hayoti, dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo aloqalari asosida rivojlanishi o'rganilgan.

Arxeologik va yozma manbalar tahlili natijasida amirlikning markaziy va mahalliy hokimiyat organlari, ularning siyosiy va ijtimoiy jarayonlardagi roli aniqlangan. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligi o'zining mustahkam ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmasi va markazlashtirilgan davlat tuzumi bilan Markaziy Osiyoda muhim siyosiy va iqtisodiy markaz sifatida faoliyat yuritgan.

Kalit so'zlar: davlat tuzumi, mutlaq monarxiya, markaziy va mahalliy boshqaruv, qo'shbegi, devonbegi, qozilik tizimi, shariat huquqi, ijtimoiy tabaqalanish, ruhoniylar va ulamolar, dehqonlar va hunarmandlar, agrar iqtisodiyot, yer egaligi (mulk, vaqf, davlat yeri), soliq tizimi (xiroj, zakot, ushr), ichki va tashqi savdo

Kirish: Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli. Rossiya bilan 1868-yildagi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. U siyosiy mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiya protektoratiga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgandi. Buxoro amirining siyosiy faoliyatini bevosita nazorat qilish uchun

Rossiya imperatorining 1885-yildagi farmoni asosida “Rossiya imperatorining siyosiy agentligi” (1886–1917) tashkil etilgan bo‘lib, u 1868-yildagi shartnoma shartlari bajarilishini va amirning siyosiy faoliyatini nazorat qilib borgan.

XIX asr oxirida Buxoro amirligi hududi Rossiya imperiyasi tasarrufiga o‘tgan hududlar hisobiga qisqargandi. Aholisining soni 2 million kishi atrofida bo‘lib, asosiy mashg‘uloti hunarmandchilik, dehqonchilik va chorvachilik edi. Poytaxt Buxorodan tashqari Chorjo‘y, Kitob, Shahrisabz, Denov kabi shaharlar amirlikning yirik savdo va hunarmandchilik markazlari hisoblangan. Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor qo‘shbegi bo‘lib, u soliqlar yig‘imi nazoratini boshqarar, ma‘muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borardi.

Qo‘shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to‘g‘risida ma‘lumot berib turardi. Barcha amaldorlar qo‘shbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlarga amirning o‘zi tomonidan tayinlanardi. Xazina va zakot yig‘imini boshqargan devonbegi lavozimi ahamiyati va mavqeyi jihatidan qo‘shbegidan keyin turgan. Sudlov, notarial ishlari, ta‘lim muassasalarini ruhoniylar boshqargan, bosh qozi esa diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi. Joylarda qonunlarning ijro etilishi, diniy amallarning bajarilishi, axloqiy mezonlar, bozordagi tarozilar va o‘lchovlar ustidan nazorat ishlarini rais boshqarardi. Rais o‘z navbatida bosh qoziga bo‘ysunardi. Bosh raisning o‘zi amir va bosh qozi oldida ma‘lumot berish uchun shaxsan mas‘ul bo‘lgan. Uchala oliy amaldor — qo‘shbegi, devonbegi va bosh qozi har doim Buxoroda bo‘lishi shart edi. Amirlikdagi beklar va ularning mulkini askarlar qo‘riqlashgan.

Mahalliy ma‘muriyat — aminlar, oqsoqollar hamda bekliklar vakillari va ruhoniylardan iborat bo‘lib, ular amir farmonlarini so‘zsiz ijro etishlari shart bo‘lgan. Butun Buxoro amirligi bekliklarga bo‘lingandi. Beklar shaxsan amir tomonidan tayinlanar va lavozimidan bo‘shatilardi. Beklar atrofida ularning qarindoshlari yoki yaqin kishilaridan tayinlangan ulkan amaldorlar guruhi jamlangan. Davlatni himoya qilish uchun amirning xalq ko‘ngillilari va qo‘shinlardan saralab olingan xos lashkari bo‘lgan. Lashkarga to‘pchiboshi (to‘pchilashkar) rahbarlik qilgan. Biroq XIX asr oxiriga kelib amir lashkari shoshilinch tarzda yig‘iladigan, yomon harbiy ta‘lim ko‘rgan va sodda qurollar

bilan ta'minlangan dehqonlardan iborat bo'lgan. Bunday lashkarning bosh maqsadi — zarur bo'lganda Ark qarshisida safga yig'ilish edi. Lashkar tartiboti amalda XIX asr boshlaridan beri isloh qilinmagan, harbiy ish sifatsiz va qo'shin qurol-yarog'lari o'ta qoloq darajada edi.

Mamlakat daromadlarining katta qismini shaxsiy manfaatlariga sarf qiluvchi amaldor va xizmatchilar davlat ravnaqi va taraqqiyoti uchun kamdan kam qayg'urishardi. Shu bois amirlikning zaruriy sarf-xarajatlari bir-biriga qon-qarindosh amaldorlar zimmasiga emas, balki oddiy xalq gardaniga tushardi. Yodda tuting! Mahalliy ma'muriyat — aminlar, oqsoqollar, bekliklar vakillari va ruhoniylardan iborat bo'lib, amir farmonlarini so'zsiz ijro etishlari shart bo'lgan.

Soliq va majburiyatlar. Xalq qo'zg'olonlari. Amirlikdagi dehqonlarning aksariyati nochorlikda kun kechirardi. Chunki yer va yerga ishlov berish vositalari amir va uning amaldorlari qo'lida edi. Davlat amaldorlari moddiy ta'minoti uchun zarur moliyaviy mablag'larni bekorga sarf qilishardi. Amir Abdulahad Peterburgga, imperator huzuriga katta sovg'a-salom bilan har yili qatnardi. Shuningdek, u Qrim va Kavkazga borganida qimmatbaho sovg'alarni va saroylarni xarid qilardi. Bu odat ulkan sarf-xarajatlarni talab qilardi va ushbu xarajatlar oddiy aholi yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushardi.

Buxoro amirligida asosiy soliqlarni aholining 90% ga yaqinini tashkil etuvchi dehqonlar to'lardi. Bu soliqlarni to'lash uchun ular savdogarlar, sudxo'rlar va yirik zamindorlarga tegishli yerlarida arzimagan haq evaziga mehnat qilishga majbur edi. Natijada og'ir jabr-zulm bilan murosa qilolmagan xalq oshkora noroziliklarga jazm qilardi. Garchi bu norozilik chiqishlarining aksariyati stixiyali, uyushmagan bo'lsa-da, ular amirlikning eski boshqaruv uslubi o'z ahamiyatini yo'qotib borayotganini ko'rsatardi. Qolaversa, dehqonlarning aksariyati soliqlarning ko'pligidan kasodga uchrab, qishloqlardan shaharlarga kelib yollanib ishlashga majbur bo'lishgan.

Amirlikda azaldan xiroj va zakot asosiy soliqlar bo'lsa-da, yerdan olinadigan xiroj solig'i miqdori ayrim viloyatlarda hosilning 40–50% iga yetardi. Bu miqdor amirlikning yillik daromadlarining yarmidan ko'pini tashkil etardi. Bundan tashqari xiroj bilan bir qatorda kafsan, dorug'ayi muzd, ya'ni xirmonlarni xatga olgani uchun amaldorga

qo'shimcha maosh ham undirilardi. Bog'lar va polizlardan olingan daromadlar uchun alohida yig'im — tanobona to'langan. Dehqonlar ma'muriyat vakillari ularning yerlarni egallab olishidan, mahalliy hokimiyat va sud hokimiyati xodimlarining poraxo'rliigi hamda tovlamachiligidan aziyat chekishardi. Odatda, dehqonning soliq to'lashga puli bo'lmasa, uning mol-mulki tortib olinardi. Kasodga uchrash, qashshoqlashish, amaldorlarning o'z vakolatlarini suiiste'mol qilishlari dehqonlarni qo'zg'olon ko'tarishga majbur qilardi.

Natijada amirlikdagi eng yirik qo'zg'olonlardan biri 1885-yilda Baljuvon bekligida shijoatli va xalqparvar Vose ismli kishi rahnamoligida ko'tarildi. Ketma-ket ocharchilik yillaridan keyin baljuvonlik dehqonlar ilk bora 1885-yilda mo'l hosil yig'ib olishgandi. Soliq yig'uvchilar esa nafaqat o'sha yil uchun, balki o'tgan kamhosil yillar uchun ham xiroj to'lashni talab qilishdi. Bunday soliq undirishni adolatsizlik deb bilgan dehqonlar uni to'lashdan bosh tortishdi. Amaldorlar zo'ravonligi va ijtimoiy zulm qurolli qo'zg'olonga undagan minglab dehqonlar Vose atrofida uyushdilar.

1885-yil iyul oyining oxirgi kunlarida qo'zg'olon ko'targan dehqonlar va amir Muzaffar lashkari o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Tayyorgarlik ko'rmagan va mehnat qurollari bilan ko'chaga chiqqan dehqonlar mag'lubiyatga uchradi. Qo'zg'olon yo'l boshchilari, jumladan, Vose ham qo'lga olinib, qatl etildi. 1888-yili Ko'lob bekligida boshlangan yirik dehqonlar qo'zg'olonlari Pomir chegara qo'shinlarining yordami bilan bostirildi. 1889-yil may oyida Kalif bekligida ham qo'zg'olon bo'lib o'tdi. 1885-yil Baljuvonda, 1888-yili Ko'lob bekligida, 1889-yil may oyida Kalifda dehqonlar qo'zg'olon ko'tarishdi.

Hunarmandchilik: Bu paytda hunarmandchilik sohasida ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlaridan biri gilam va namat tayyorlash bo'lgan. Buxoro gilamlariga chet ellarda ham talab katta bo'lib, amirlik savdogarlari ularni ko'p miqdorda xorijga, jumladan, Rossiyaga olib borib sotishardi. Bundan tashqari O'rta Sharq mamlakatlari, Turkiston bozorlarida ham Buxoro gilamlari xaridorgir edi. Ichki va tashqi bozorlarda Buxoro ip-gazlama matolari, ko'nhilik, zardo'zlik, kumush va oltin kandakorlik buyumlari, bo'yoq va sovun mahsulotlari ham mashhur bo'lgan.

Buxoro ustalarining oltin va kumushdan yasagan buyumlari, ayniqsa, dong taratgandi. Amirlikning deyarli barcha shaharlarida mohir zargarlar mehnat qiladigan

ustaxonalar mavjud edi. Ular yasagan mahsulotning barchasi o'ziga xos nozik naqshlar bilan bezatilardi. Buxoro kulolchilik buyumlari bozori ham chaqqon bo'lib, kulollar butun amirlik shaharlarida keng tarqalgandi. Buxoro amirligida azaldan rivojlanib kelgan o'ziga xos ko'rinishdagi hunarmandchilik mavjud bo'lgan. Hunarmandlarning asosiy daromadlari behisob soliqlarni to'lashga ketardi. Shu bois ular o'z ustaxona va korxonalarini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun qo'shimcha mablag'larga ega emasdi. Savdo-sotiq munosabatlari.

XIX asrning oxirida Buxoro amirligi Rossiya, Afg'oniston, Hindiston, Eron va Kavkaz bilan savdo aloqalariga ega bo'lgan. Buxoro, Chorjo'y, Karki, Termiz va Kogon (Yangi Buxoro)da Rossiya firmalarining idora va ombor xonalari mavjud edi. Rossiya va Buxoro amirligi o'rtasida tovar aylanishi yil sayin o'sib bordi. Buxoro amirligi hududi katta foyda keltiruvchi tranzit savdo uchun ham qulay edi. Rossiya va Afg'oniston o'rtasidagi barcha savdo yo'llari Buxoro amirligi orqali o'tardi. Rossiya Buxoro orqali Afg'onistonga katta miqdorda movut, chinni buyumlar, baxmal, chit, gugurt va kerosin chiqarardi. 1887-yilda amirlik hududi orqali dastlabki temiryo'l o'tkazildi. Buxorodan 15 kilometr masofada Yangi Buxoro stansiyasi qurilishi boshlab yuborildi. Bu yerda amir saroyi va Rossiya siyosiy agentining qarorgohi ham barpo etildi. Endilikda Buxoro amirligi temiryo'l orqali Toshkent, Orenburg va Moskva bilan bog'langandi.

1888-yilga kelib Buxoro amirligi hududida rus qishloqlari vujudga kela boshladi. Buxoroda Rossiya davlat banki bo'limi ochildi. Bundan tashqari ikkita paxta tozalash zavodi, Yevropa namunasida ikkita mehmonxona barpo etildi. Eski Buxorodagi qo'shbegi uyi va Rossiya imperatorining siyosiy agentligi qarorgohi ilk paydo bo'lgan telefon aloqasi bilan bog'langandi.

Tadqiqot natijasi: Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Buxoro amirligi Markaziy Osiyodagi eng mustahkam markazlashgan davlatlardan biri bo'lgan. Amirlik davrida siyosiy hokimiyat amir va uning maslahatchilari, shuningdek, mahalliy hokimlar (hakimlar, dehqon va shahar boshliqlari) orqali tizimli ravishda amalga oshirilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, davlat tuzumi qat'iy iyerarxik tuzilishga ega bo'lib, amir boshqaruvini qo'llab-quvvatlovchi boshqaruv organlari va sud tizimi samarali ishlagan.

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning o'rganilishi Buxoro amirligida qatlamli ijtimoiy tuzilma mavjudligini ko'rsatdi.

Asosiy ijtimoiy guruhlar: amir va uning oilasi, davlat xizmatchilari, mulkdorlar, dehqonlar, hunarmandlar va savdogarlar bo'lgan. Tadqiqotlar natijasida dehqonchilik va chorvachilik amirlik iqtisodiyotining asosiy daromad manbai ekanligi aniqlangan, shuningdek, hunarmandchilik va savdo aloqalari shaharlarda rivojlangan. Savdo yo'llari, xususan, Buyuk Ipak yo'li orqali tashqi iqtisodiy aloqalar amirlik iqtisodiyotini mustahkamlashda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, tadqiqot arxeologik va yozma manbalar orqali amirlikda soliqlar, yer taqsimoti, ijtimoiy majburiyatlar va moliyaviy boshqaruv tizimi aniq va tartibli bo'lganini ko'rsatdi.

Bu esa Buxoro amirligini nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy jihatdan ham barqaror va samarali davlat sifatida tasvirlash imkonini beradi. Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari Buxoro amirligining markazlashgan davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayotining yuqori darajada tashkil etilganligini, uning Markaziy Osiyo tarixida muhim o'rin tutganini ilmiy asosda tasdiqlaydi.

XULOSA

Buxoro amirligi davlat tuzumi mutlaq monarxiya tamoyillariga asoslangan bo'lib, unda oliy hokimiyat amir qo'lida jamlangan edi. Boshqaruv tizimi markaziy va mahalliy bo'g'inlardan iborat bo'lib, qo'shbegi, devonbegi, beklar hamda qozilik idoralari orqali amalga oshirilgan. Davlat boshqaruvida shariat huquqi muhim o'rin egallab, siyosiy-huquqiy munosabatlar diniy-me'yoriy asosda tartibga solingan. Ijtimoiy tuzum an'anaviy tabaqaviy xarakterga ega bo'lib, unda amaldorlar, ruhoniylar, savdogarlar, hunarmandlar va dehqonlar muhim qatlamlarni tashkil etgan.

Jamiyatda yer egaligi va mulk munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy mavqeni belgilovchi asosiy omil bo'lgan. Iqtisodiy hayot asosan agrar yo'nalishda rivojlanib, sug'orma dehqonchilik yetakchi tarmoq hisoblangan. Yerlarning mulk, vaqf va davlat shakllari mavjud bo'lib, soliq tizimi (xiroj, zakot, ushr va boshqa yig'imlar) davlat daromadining asosini tashkil etgan. Ichki va tashqi savdo, shuningdek, hunarmandchilik iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim sohalar bo'lgan.

Umuman olganda, Buxoro amirligining davlat tuzumi va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti oʻrta asr sharqona boshqaruv anʼanalariga tayangan holda shakllangan boʻlib, XIX–XX asr boshlarida ichki ijtimoiy ziddiyatlar va tashqi siyosiy omillar taʼsirida tanazzul jarayonini boshdan kechirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атовуллаев С. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлиги аҳолисининг этник таркиби // ҚарДУ хабарлари: илмий-назарий, услубий журнал. – Қарши : Қарши давлат университети, 2022. Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент : Фан, 1994.
3. Кюгельген фон А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в провидениях их историков XVIII–XIX вв. – Алма-Ата : Дайк-пресс, 2004.
4. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – Санкт-Петербург : Тип. М. М. Стасюлевича, 1911.
5. Мейендорф К. Е. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва : Наука, 1975. – 256 с.
6. Сухарева О. А. Бухара XIX – начала XX в. (позднефеодальный город и его население). – Москва : Наука, 1966.
7. Сухарева О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). – Москва : Наука, 1976.
8. Тураева Г. Б. Sukhareva's research on population statistics in Bukhara (on the example of Persians-Iranians) // American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3, № 6.
9. Тўраева Г.Б. XIX аср охири - XX аср бошларида Ўрта Осиё халқлари этнографияси тарихшунослиги – рус шарқшунослиги мисолида / "Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1 Б-132-135. (70), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й.– Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>
10. Тоʻrayeva G.B .XIX asrda Buxoro amirligi aholisi etnografiyasining rus elchi va sayyohlari asarlarida oʻrganilishi /Surxondaryoda Ilm va Fan /Ilmiy-innovatsion jurnal №1/2020

11. Гули Бахритдиновна Тўраева, Феруза Холмаматовна Ўтаева, Нилуфар Ахматовна Жумаева О.А.Сухарева Тадқиқотларида Бухоро Тарихи Ва Этнографиясининг Ўрганилиши 2021/Scientificprogress Ўзбекистон
12. То‘раева Г. В. О.А.Suxareva Tarixchi-etnograf olima. Вестник Института сокровищница наука.-2019 Тожикистон.
13. Халфин Н. А., Рассадина Е. Ф. Н. В. Ханыков — востоковед и дипломат. — Москва : Наука (ГРВЛ), 1977.
14. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. — СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843.
15. Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент : Info Capital Group, 2019.